



## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH

Shakhzodakhon Kushakova

Master of Tashkent State University of Law

Number: +99890 165 45 75

mail: shahzodakushakova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7350255>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>rd</sup> November 2022

Accepted: 19<sup>th</sup> November 2022

Online: 23<sup>rd</sup> November 2022

### KEY WORDS

*Ommaviy axborot vositalari, media makon, Milliy matbuot markazi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik san'ati.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Respublikamizda Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rnini va ahamiyati borasida so'z yuritiladi. Qolaversa, OAV sohasida amalga oshirilgan islohotlar, yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, OAVning davlat ro'yhatidan o'tkazishning huquqiy asoslari ko'rsatib o'tilgan.*

Bugungi kunda OAV jamiyat hayotida asosiy rolni o'ynamoqda. Shu jumladan, OAV ning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini ham tezlik bilan mustahkamlanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining mamlakatimizdagi faoliyati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yili mamlakatimizda bor yo'gi 395 ta OAV faoliyat yuritgan. 2016-yilga kelib ularning soni 1437 taga yetgan bo'lsa, bugun ularning soni 2 mingga yaqinlashdi va ularning aksariyati xususiydir. O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat

fondi va Xalqaro press klub kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Hayot ko'zgusi hisoblanmish matbuot – "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi lozimligi ko'p bora ta'kidlangan. Bu borada hali oldimizda turgan vazifalar juda ko'p. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda OAV alohida o'rin tutadi. Chunki aynan OAV globallashtirish sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'priklar vazifasini bajarmoqda. Mazkur qonun axborotdan foydalanish erkinligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining jurnalistga zarur axborotni, qonunda belgilanganidek, 7 kunlik muddatda taqdim etish majburiyatini



ta'minlash orqali ushbu kafolatlarni yanada mustahkamlaydi. Bu axborot olishdagi ba'zi paysalga solish holatlarini bartaraf qiladi, shuningdek, jurnalist materialining tezkorligini, ishonchliligini hamda sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda OAV ni davlatimiz rahbari shaxsan o'zi qo'llab-quvvatlamoqda. 2020-yil 27-iyun kuni nishonlangan "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari" kuni munosabati bilan davlatimiz rahbari tomonidan - "Eng asosiysi, ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratmoqda", - deya qayd etildi. Shavkat Mirziyoyev bo'lg'usi jurnalistlar chuqur bilim va kasb mahoratini, ona tili bilan birga chet tillarni, faol fuqarolik pozitsiyasini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik malakasini puxta egallashlariga alohida e'tibor qaratishi kerakligini bildirdi.

Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish

tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Ommaviy axborot vositasi deyilganda ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi) shakli hamda axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari tushuniladi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, 2019-yil 1-oktabrdan e'tiboran bolalar adabiyotlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan mahsulotlar chop etishga ixtisoslashgan nashriyotlar noshirlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod qilindi; bir vaqtning o'zida davlat organi va tashkiloti rahbarining matbuot kotibi



hisoblanib, axborot siyosati masalalari bo'yicha rahbarning maslahatchisi maqomiga ega bo'ldi hamda mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlariga ko'ra davlat organi va tashkiloti rahbarining o'rinbosariga tenglashtirildi.

Ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish borasida ham tizimli ravishda siyosiy islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda OAVni davlat ro'yxatidan o'tkazish Davlat xizmatlari markazlarida amalga oshiriladi. Buning uchun Davlat xizmatlari markaziga yoki "[my.gov.uz](http://my.gov.uz)" platformasi orqali ariza yuborish kerak.

Ro'yxatga olish to'g'risidagi arizada ommaviy axborot vositasining:

- 1) muassisi(muassislari);
- 2) nomi, qaysi tilda(tillarda) e'lon qilinishi, manzili;
- 3) maqsad va vazifalari;
- 4) qanday doiradagi o'quvchiga(tomoshabinga, tinglovchiga) mo'ljallanganligi;
- 5) davriyligi, hajmi, moddiy-texnika ta'minoti hamda pul bilan ta'minlanish manbalari ko'rsatilishi kerak.

Ko'rsatilgan ma'lumotlarda o'zgarish bo'lsa, ommaviy axborot vositasi belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilishi shart. O'zgartishlar jiddiy bo'lmagan hollarda ro'yxatga oluvchi organ ommaviy axborot vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazish shart emasligi to'g'risida qaror qaror qabul qilishi mumkin.

So'rovnomaga OAV yoki internet nashri tahririyati yuridik shaxs bo'lmagan hollarda, tahririyat to'g'risidagi nizamning nusxasi hamda muassis agar ikkita bo'lsa, ta'sis shartnomasi ilova qilinadi.

Ariza beruvchi uchinchi shaxs bo'lgan taqdirda tegishli tartibda berilgan

ishonchnomaning elektron nusxasi so'rovnomaga ilova qilinadi.

Ariza yuborilgandan so'ng 15 kun mobaynida vakolatli organ OAVni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida QR-kod qo'yilgan qaror qabul qiladi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etadi.

Ariza beruvchi xabarnoma va OAVni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qarorni olgan paytdan boshlab 3 ish kuni mobaynida belgilangan miqdorda davlat bojini to'laydi.

Davlat boji miqdori quyidagicha:

- davriy bosma nashrlar (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, almanaxlar va boshqalar) - bazaviy hisoblash miqdorining 12,5 baravari;
- tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, axborot agentliklari - bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari;
- mahsulotlari Internet tarmog'i orqali tarqatiladigan OAV (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, almanaxlar, tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar va boshqalar) - bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi;
- asosan bolalar, o'smirlar, nogironlar uchun mo'ljallangan, shuningdek, ta'lim va madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi OAV (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, almanaxlar, tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar va boshqalar) - bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravari;
- reklama xususiyatiga ega bo'lgan OAV (reklamaga ixtisoslashgan gazetalar, jurnallar, bukletlar, tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar va boshqalar) - bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari;
- OAVlarning boshqa turlari (elektron tarzda tarqatiladigan ommaviy axborot vositalari mahsulotlari va boshqalar) -



bazaviy hisoblash miqdorining 12,5 baravari.

Ommaviy axborot vositalari qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi uchun davlat ro'yxatidan o'tkazishda nazarda tutilgan davlat boji summasining 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Demokratiya ravnaq topgan har bir jamiyatda alvvalo so'z erkinligi va inson huquqlari birinchi darajali masala hisoblanadi va ommaviy axborot vositalariga jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni yoritish uchun katta imkoniyatlar va imtiyozlar beriladi. Chunki aynan shu yo'l orqali rivojlanish va globallashtiruv sur'atlari tezlashadi. Axborot asrida axborotga senzura qo'yish bu davlatni xalqaro jamiyatdan uzishga o'xshaydi va bu bir kun kelib yana cheklanishga qarshi kurarishga olib kelishi hammaga ayon. Shu sababdan davlat aniq va belgilangan qonuniy normalar orqali

media rolini tartibga solishi va o'z vakolati yuzasidan uni nazorat qilishi lozim.

➤ Ommaviy axborot vositalarida yuzaga keladigan kamchiliklar axborotni no'to'g'ri talqin qilinishi shu sohadagi kadrlar salohiyatini yetishmasligi oqibatidan kelib chiqishi sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

➤ Bunday vaziyatlarda media nazorati bilan shug'ullanuvchi organ bu masalaga e'tibor qaratishi va Birlashgan Arab Amirliklari singari o'z kadrlariga chet davlatlarda tajriba oshirish, ularni o'qitish va xodimlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlashi lozim.

Jurnalistlarga media etiketi bilan bir qatorda axborotni to'g'ri talqin qilishni bilishni va faqat kontent uchun yozishdan vaziyatga yetarli baho berish orqali holatni bayon qilish kabi masalalarida treninglar va davra suhbatlari o'tkazish, malakali jurnalistlar bilan tajribalar o'tkazishda ko'maklashish kerak.

## References:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон 2017.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. И-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. – 592 б.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni (yangi nashr) -www.lex.uz
5. Sapaev V. O, The actuality of improvement in rural social standard of living in Uzbekistan // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 147-151. <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss11/24/>